

AUDITORIYADAN TASHQARI O'TKAZILADIGAN TADBIRLARNING DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Abdisheripova T.J

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 2-son litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Darsdan tashqari faoliyatlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, nutq madaniyati, jamoada ishlash ko'nikmalari hamda ona tiliga hurmatini oshirishdagi o'rni misollar asosida tahlil qilinadi. Tadbirlarning puxta rejalashtirilishi, maqsadga yo'naltirilganligi va innovatsion yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Xulosa sifatida, auditoriyadan tashqari ishlanmalar o'quvchilarning har tomonlama kamolotida muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: auditoriyadan tashqari tadbirlar, ta'lim samaradorligi, madaniy-ma'rifiy ishlar, ijodiy faoliyat, nutq madaniyati, ona tili, o'quvchi faolligi, jamoaviy ishlash, kompetensiya, innovatsion yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение внеклассных мероприятий в повышении эффективности образовательного процесса. Анализируется влияние таких форм деятельности на развитие творческого мышления, речевой культуры, коммуникативных навыков и уважения к родному языку. На примере конкретных мероприятий показано, что грамотно организованные внеклассные работы повышают мотивацию учащихся и способствуют формированию гармонично развитой личности. Делается вывод, что внеклассные мероприятия являются важной составляющей современного образования.

Ключевые слова: внеклассные мероприятия, эффективность обучения, культурно-просветительская работа, творческая деятельность, речевая культура, родной язык, активность учащихся, командная работа, компетенции, инновационный подход.

Annotation: This article explores the role and significance of extracurricular activities in enhancing the effectiveness of the educational process. It examines how such activities promote students' creative thinking, communication skills, sense of responsibility, teamwork abilities, and respect for their native language. Using practical examples, the article emphasizes that well-planned and purpose-oriented extracurricular events increase students' motivation and contribute to their comprehensive personal development. The study concludes that extracurricular activities are an essential component of modern education.

Keywords: extracurricular activities, educational effectiveness, cultural and educational events, creative activity, speech culture, native language, student engagement, teamwork, competencies, innovative approach.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish hamda yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijodkorlik va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biriga aylangan. Bu borada faqat dars jarayonining o'zigina yetarli bo'lmay, balki auditoriyadan tashqari tadbirlarni tashkil etishning o'zni beqiyosdir. Vaholanki, darsda olgan nazariy bilimni yanada chuqurlashtirish uchun o'quvchi izlanishi, o'zida mas'uliyat his etishi, qolaversa, jamoada ishlash, yetakchilik kabi sifatlarining yuzaga chiqishiga zamin hozirlaydi. Auditoriyadan tashqari tadbirlar bir necha yo'nalishlarda, turli fanlar doirasida tashkil qilinishi mumkin:

- Madaniy-ma'rifiy tadbirlar (uchrashuvlar, ijodiy kechalar, ko'rik-tanlovlar)
- Fan to'garaklari va loyihalar (ilmiy izlanishlar, amaliy loyihalar taqdimoti)
- Ijtimoiy-gumanitar ishlar (xayriya aksiyalari, ekologik tadbirlar)
- Sport va sog'lom turmush tarzi (sport musobaqalari, dietologlar bilan uchrashuvlar)

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, ona tili va adabiyot darslarida, asosan, madaniy-ma'rifiy yo'nalishda faoliyat olib boriladi, xususan,

“Ijodkor bilan yuzma-yuz” (yozuvchi va shoirlar bilan ijodiy uchrashuvlar), “Ona tilim - onam kabi mo'tabar tilim” (til bayrami), “Adabiyot ummonida ikki dur” (A.Navoiy va Z.Bobur), “Kitob mening do'stim” (kitobxonlik ko'rik-tanlovi) kabilar.

Misol tariqasida o'quv dargohimizda o'tkazilgan “Qadring baland bo'lsin, ona tilim” tadbirida talabalar juda faollik bilan ishtirok etishdi.

Bugungi kunda o'zbek tili chet tillar bilan “ikki uloqchi ot kabi chopishib borayotgan” mahalda o'quvchilarning o'z ona tiliga, millat tiliga hurmatini oshirish, ularda tilni qadrlash instinktini paydo qilishda shu kabi tadbirlarni tashkil etish ayni muddaodir.

Ona tilini ulug'lovchi she'rlar ifodali aytilayotgan paytda o'quvchilar vujudlarida, tomirlarida o'zbek millatining qoni oqayotganini his qilib turgan bo'lsalar, sahnada “madaniylik” belgisi deya nutqida ajnabiy so'zlarni aralashtirib gapirayotgan tengdoshining harakatlari nojo'ya ekanini anglab yetishdi. Jamoaviy ishlash malakasi ortdi, o'zlarining ijodiy va liderlik qobiliyatlarini namoyon qilishdi, nutq madaniyatiga, muloqot odoblariga rioya qilishni yaxshiladilar, ayniqsa, tadbirda O'lmas Samarqandiyning quyidagi she'ri ishtirokchilarning barchasida nutqlariga e'tiborli bo'lishlari uchun turtki bo'ldi:

O'ttiz olti yilki...

O'ttiz olti yilki, sening kuningda

“Bekat”ga burilar tilimiz birdan

O'ttiz olti yilki, ertasi kuni

Biz tushib qolamiz “ostanovka”dan

O'ttiz olti yilki, faqat bir kunga

Bizga malham bo'lar shu “dorixona”

O'ttiz olti yilki, bir kun o'tiboq,

“Apteka”dan dori izlaymiz yana

O'ttiz olti yilki, bor-yo'g'i bir kun

“Qisqasi”, sharaf-u shonga to'lasan

O'ttiz olti yilki, ertasi kuni

“Karoche”, bir yilga unut bo'lasan

O'ttiz olti yilki, O'zbek tiliga
Ash'orlar bitamiz nazmiy bo'stonda
O'ttiz olti yilki, tilin bilmagan
Tilsizga jazo yo`q O'zbekistonda!!!

Aslida tadbirni tayyorlash va o'tkazishdan maqsad ham shu emasmi?

Shuni qayd etish kerakki, auditoriyadan tashqari olib boriladigan bunday amaliy ishlar ta'lim muassasasida ijobiy muhitni shakllantirishda, o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida samimiylilikni yuzaga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, tadbirning aniq maqsadga yo'naltirilganligi, rejalashtirilgan holda amalga oshirilganligi, qolaversa, innovatsiyadan o'rinli foydalanish ham samaradorlikning oshishida muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'quv mashg'ulotlaridan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularning to'g'ri va o'rinli tashkil qilinishi yosh avlodning har tomonlama barkamol shaxs sifatida ulg'ayishiga hissa qo'shadi.

Zero, o'quvchilar nafaqat nazariy bilim oladi, balki shaxsiy kompetensiyalarini namoyon qilishlarida hamda jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlarida ham amaliy yordam bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika. Ensiklopediya. 3 –jild. Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti 2017 y.
2. Ismoilova Z.K. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent "Fan" 2001 y.
3. Salixova G.X. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari orqali o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish
4. Xudoynazarov E.M. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilar mantiqiy fikrlashini rivojlantirish omili sifatida